

MUHANDISLIK & IQTISODIYOT

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

No 4

2025

APREL




Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google
Scholar

OPEN
ACCES

ULRICH'S WEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛЯЛ

TDU
DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
1931



TULON KARIMOV NOMIDADI
TOSHKENT DAVLAT TEKHNIKA UNIVERSITETI
TDTU

1955
TOSHKENT DAVLAT
TRANSPORT UNIVERSITETI

TJU
TOSHKENT DAVLAT
TRANSPORT UNIVERSITETI

TJU
TOSHKENT
AKHITTEKTA-QURILISH
UNIVERSITETI

TJU
TOSHKENT KUVOY-TEKNOLOGIYA
AKHITTEKTA-QURILISH
UNIVERSITETI
1991

TJU
TOSHKENT POLYTECHNIQUE INSTITUTE
DZAKI POLYTECHNIC INSTITUTE



MUHANDISLIK & IQTISODIYOT

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

BOSH MUHARRIR:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari doktori, PhD

TAHRIR HAY'ATI:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor, akademik

Sharipov Kongratbay Avazimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor, TDIU kengash kotibi

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otobek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbanov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dots.nt

Bauyedtinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor. Buxoro davlat texnika universiteti

MUHANDISLIK & IQTISODIYOT

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
05.01.07 – Matematik modellashtirish
05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
05.04.01 – Telekommunikasiya va kompyuter tizimlari, telekommunikasiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil
28-avgustdagি 360/5-son
qarori bilan “Dissertatsiyalar
asosiy ilmiy natijalarini chop
etishga tavsiya etilgan milliy
ilmiy nashrlar ro'yxati”ga
texnika va iqtisodiyot fanlari
bo'yicha “Muhandislik va
iqtisodiyot” jurnali ro'yxatga
kiritilgan.

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G. V. Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

Роль искусственного интеллекта в управлении финансовым потенциалом предприятий.....	10
Юсупов Файзулла Якубович	
Erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini moliyaviy vositalar orqali takomillashtirish: "Navoiy" EIZ misolida.....	20
Quziev Ravshan Ramazanovich	
Davlat xardilari jarayonini boshqarish va nazorat qilishning muhim jihatlari	26
Xodjamqulov Shahboz Sherali o'g'li	
Oliy ta'lim tizimini baholash: milliy model va global standartlar	31
Hakimov Hakimjon Abdullo o'g'li, Hakimova Gulnoza Abdulloyevna	
Aksiyadorlik jamiyatlarining investitsion jozibadorligini oshirishda xorij tajribasi	37
Qodirov Iskandar Alisher o'g'li	
Механизмы адаптации рынка труда к новой модели экономического роста: теория, практика и цифровые решения	41
Абдумухтаров Анваржон Акрамжонович	
Xorazm viloyati eksport strategiyasini takomillashtirishning iqtisodiy va ijtimoiy ta'sirlari.....	50
Fozil Xolmurotov	
Suv resurslarini tejashda aqlii sug'orish tizimlarining ahamiyati	62
Abdullahov A., Karimov Anvarjon Muqumjonovich	
To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoati raqobatbardoshligini oshirishning marketing vositalari	68
Satvoldiyev Ulugbek Kamilovich	
The current state and development trends of innovative activity in agriculture	72
Aytmuratova Miyrigul Zhalgasovna	
Методология оценки инновационной деятельности	78
Алиева Эльнара Аметова	
Yashil iqtisodiy o'sishda raqamli iqtisodiyot va tadbirkorlikning integratsiyalashuvi.....	86
Xodjamov Asliddin O'ktam o'g'li, Maqsudov Bunyod Abdusamat o'g'li	
Tijorat banklari aktivlarini diversifikatsiya qilish yo'llari tahlili.....	92
Abdurazzoqov Abdualim Abdujabbor o'g'li	
Направления повышения эффективности средств, направляемых на обеспечение занятости населения и сокращение бедности	97
Маликов Ауезхан Жорабекович	
O'zbekiston uy xo'jaliklarining farovonlik koeffitsiyenti: blackorby va donaldson yondashuvi asosida tahlili	106
Boltayeva Dilafza Jumaqulovna	
O'zbekistonda aholi jon boshiga asosiy kapitalga investitsiyalarning o'zgarish dinamikasi	114
Qo'shbaqov Aybek Shovqiyevich	
Yashil iqtisodiyotga o'tish sharoitida barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash, davlat iqtisdoi siyosatini takomillashtirish va sirkulyar iqtisodiyot tamoyillarini joriy etishning samaradorligini oshirish yo'llari	123
Muratbaeva Leonora Muxamedjan qizi, Saifnazarov Ismoil Saifnazarovich	
Yangi o'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanish tendensiyalari	132
Tojiyev Javlonbek Rustamovich	



YANGI O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

Tojiyev Javlonbek Rustamovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Mustaqil izlanuvchisi

ORCID:0009-0003-4678-2423

Annotatsiya: Mazkur maqolada Yangi O'zbekiston sharoitida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanish tendensiyalari tahlil qilinadi. O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati, davlat tomonidan ko'rsatilayotgan qo'llab-quvvatlash choralar, huquqiy va moliyaviy muhitdagi o'zgarishlar hamda ularning kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning o'sishiga qanday ta'sir ko'rsatayotgani o'rganilgan.

Kalit so'zlar: kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, kichik tadbirkorlik, Yangi O'zbekiston, iqtisodiy rivojlanish, biznes muhiti, davlat qo'llab-quvvatlashi.

Abstract: This article analyzes the development trends of small business and private entrepreneurship in the context of New Uzbekistan. The socio-economic significance of small business and private entrepreneurship in Uzbekistan, state support measures, changes in the legal and financial environment and how they affect the growth of small business and private entrepreneurship are studied.

Keywords: small business and private entrepreneurship, small business, New Uzbekistan, economic development, business environment, state support.

Аннотация: В статье анализируются тенденции развития малого бизнеса и частного предпринимательства в условиях нового Узбекистана. Изучены социально-экономическое значение малого бизнеса и частного предпринимательства в Узбекистане, меры государственной поддержки, изменения в правовой и финансовой среде и их влияние на рост малого бизнеса и частного предпринимательства.

Ключевые слова: малый бизнес и частное предпринимательство, малый бизнес, новый Узбекистан, экономическое развитие, деловая среда, государственная поддержка.

KIRISH

Mamlakatimiz iqtisodiyoti rivojlanishida tadbirkorlarning o'rni beqiyosdir, chunki tadbirkorlik doimiy ravishda o'sib borayotgan faoliyat turidir. Mavjud turli muammolar aynan ushbu sohada faoliyat yuritishga ko'proq e'tibor qaratilishi va har tomonlama yondashuvlar rivojlanishiga olib keldi. Aholining iqtisodiy bilim darajasi ortib borayotgani jamiyatda nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy tadbirkorlikka bo'lgan ehtiyojni ham oshirmoqda.

Tabiiy resurslarning cheklanganligi, dunyo aholisining doimiy ko'payishi hamda biologik xilma-xillikning kamayishi borasidagi xavotirlar ortib borayotgan bir paytda, atrof-muhitni muhofaza qilishga qaratilgan ijtimoiy



tadbirkorlar an'anaviy tadbirkorlardan farq qiladi. Ularning asosiy maqsadi ko'proq foyda olishdan iborat bo'lmasdan, balki ekologik toza, iqtisodiy jihatdan rentabelli va ijtimoiy qiymat yaratuvchi biznes modelini shakllantirishdir [1].

Jahon amaliy tajribasi shuni ko'ssatadiki, kichik biznes yirik ishlab chiqaruvchilarga nisbatan kapital mablag'larni kamroq talab qilishi, ixchamligi, shart-sharoitlarga mos ravishda mahsulot turlarini tez o'zgartira olishi, ishlab chiqarish quvvatlarini tez modernizatsiya qilish imkoniyati bilan ajralib turadi.

Kichik tadbirkorlik bozor kon'yunkturasining o'zgaruvchan talablariga va vaqt-i vaqt bilan yuzaga keladigan iqtisodiy inqirozlarga tez moslasha oladi.

Yurtimizda tadbirkorlik nima sababdan kutilgan darajada rivojlanmayapti? Sababi – bu soha vakillarini asossiz tekshirish holatlari hanuzgacha uchramoqda. Ochig'ini aytganda, tadbirkorlikning erkin rivojlanishiga aynan davlat idoralari o'zлari to'siq bo'layotgan holatlar ham mavjud. Hech kimga kerak bo'Imagan byurokratik tartib-taomillar saqlanib qolmoqda, ayrim joylardagi mansabdar shaxslar esa o'z shaxsiy manfaatini ustun qo'ygan holda ish yuritmoqda [2]. Ushbu fikrlar tadbirkorlik faoliyati va tadbirkorlarning iqtisodiyotdagi o'rni qanchalik muhim ekan haqida aniq tasavvur beradi.

Xususan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish hamda uning boshqaruva faoliyati mexanizmlarini takomillashtirish masalalari bugungi kunning dolzarb va ustuvor vazifalaridan biri bo'lib qolmoqda. Aynan kichik biznes o'zining harakatchanligi, kam kapital mablag' bilan tez va yengil modernizatsiya qilinishi orqali ishlab chiqarilayotgan mahsulot turlarini qisqa muddatda yangilab, raqobatbardosh mahsulotlarni iste'molchilarga taklif qila oladi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning tobora rivojlanishi ular faoliyatini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish masalalariga bevosita bog'liqdir. Mamlakatimizda ushbu yo'nalishda zamonaviy boshqaruva usullarini joriy etish va rivojlangan xorijiy tajribani chuqr o'rganish orqali qo'llab-quvvatlashga qaratilgan chora-tadbirlar amalgalashmoqda.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so'ng iqtisodiy rivojlanishning asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida kichik va o'rta biznesni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratildi. Yangi O'zbekiston sharoitida esa kichik tadbirkorlikni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va uning rivojlanishini rag'batlantirish mamlakat iqtisodiyotini modernizatsiya qilishda muhim omilga aylangan. Kichik tadbirkorlik nafaqat yangi ish o'rinnari yaratishda, balki milliy iqtisodiyotni diversifikasiya qilish hamda raqobatbardoshlikni oshirishda ham muhim rol o'ynaydi. Bugungi kunda ushbu sohani rivojlanirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Davlat tomonidan kichik biznesni rivojlanirishga yo'naltirilgan islohotlar, soliq imtiyozlari, innovatsion texnologiyalar va moliyaviy ko'maklar orqali soha jadal sur'atlar bilan o'sib bormoqda. Shu bilan birga, yangi iqtisodiy sharoitlar, global raqobat va raqamli texnologiyalar kichik biznes uchun yangicha imkoniyatlarni yuzaga keltirmoqda.

Maqolada Yangi O'zbekistonda kichik tadbirkorlikning rivojlanish tendensiyalari, uning iqtisodiy o'sishga qo'shayotgan hissasi hamda kelgusida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan yangi imkoniyatlarni tahlil qilinadi.

Shuningdek, kichik tadbirkorlikni rivojlanirishda uchraydigan muammolar, ularni bartaraf etish uchun zarur bo'lgan chora-tadbirlar va zamonaviy innovatsion yondashuvlar ham ko'rib chiqiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

N. Haydarov [3] muallifligidagi monografiyada O'zbekiston iqtisodiyotida tadbirkorlikning rivojlanish bosqichlari va uning milliy iqtisodiyot barqarorligidagi roli chuqr tahlil qilingan. Muallif kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatiga mamlakatdagi iqtisodiy muhit, qonunchilik bazasi, soliq tizimi hamda moliyaviy infratuzilmaning ta'sirini atroficha yoritgan. U tadbirkorlikning rivojlanishi iqtisodiyotni barqarorlashtirishdagi muhim vosita ekanligini asoslab bergen.

D. Raxmonov [4] tadqiqotida tadbirkorlik faoliyatini rivojlanirishda institutsional omillar, xususan, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash siyosati, iqtisodiy islohotlarning ta'siri, qonunchilik bazasining takomillashuvi hamda biznes muhitni yaxshilash masalalari batafsil tahlil qilinadi. Muallif O'zbekiston iqtisodiyotida kechayotgan transformatsion jarayonlarning tadbirkorlik rivojiga qanday ta'sir ko'rsatayotganini asosli dalillar bilan bayon qiladi.

Z. Rasulov [5] maqolasida tadbirkorlik subyektlari rivojlanishining mamlakat iqtisodiyotidagi o'rni va ularga ta'sir ko'rsatuvchi iqtisodiy omillar tahlil qilinadi. Muallif tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantirishda davlat iqtisodiy siyosati, kredit resurslariga kirish imkoniyatlari va infratuzilmani rivojlanirish masalalarini ko'rib chiqqan. Tadbirkorlikning iqtisodiy o'sishni jadallashtirish va aholi bandligini oshirishdagi ahamiyati empirik ma'lumotlar asosida yoritilgan.

R. Mullajonov [6] tadqiqotida mamlakat iqtisodiyotining barqarorligini ta'minlashda tadbirkorlik faoliyatini rivojlanirishning o'rni keng o'rganilgan. Muallif iqtisodiy barqarorlikka erishishda tadbirkorlik muhitining yaxshilanishi, xususiy sektorni moliyalashtirish va innovatsion tadbirkorlikni rivojlanirishni asosiy omillar sifatida



ко'rsatadi. Tadqiqotda O'zbekiston iqtisodiyotidagi tadbirkorlik subyektlarining natijadorligi bo'yicha tahlili va statistik ma'lumotlar keltirilgan.

S. Abdullayeva [7] o'z tadqiqotida innovatsion tadbirkorlik faoliyatining O'zbekiston iqtisodiy rivojlanishiga ta'sirini nazariy va amaliy jihatdan tahlil qiladi. Muallif mamlakatdagi innovatsion muhit va uning tadbirkorlik rivojidagi o'rnni o'rganadi. Shuningdek, innovatsion korxonalarni yaratish va rivojlantirishning iqtisodiy samaradorligini oshirish yo'llariga e'tibor qaratib, iqtisodiy o'sishni tezlashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqadi.

Yangi O'zbekistonda kichik tadbirkorlikning rivojlanishiga doir tadqiqotlar ko'p yillik ilmiy ishlar va amaliy tajribalar natijasida shakllangan. Adabiyotlar sharhida kichik tadbirkorlikning rivojlanishi va unga ta'sir ko'rsatuvchi omillar bo'yicha mavjud ilmiy yondashuvlar va izlanishlar tahlil qilinadi.

A. Xoskining fikricha, "Qarorni mustaqil qabul qilib, ishni o'z hisobidan yurituvchi, biznesni boshqarish bilan shaxsan shug'ullanuvchi va kerakli vositalar bilan ta'minlanishi uchun shaxsiy javobgarlikni zimmasiga oluvchi shaxs yakka tartibdag'i tadbirkor hisoblanadi". Ushbu ta'rifda tadbirkorning biznesdagi qarorlarni shaxsan qabul qilishi asosida boshqaruvni tashkil etishiga alohida urg'u berilgan.

V. I. Vidyapin rahbarligida G. V. Plekhanov nomidagi Rossiya iqtisodiy akademiyasi olimlari tomonidan nashr etilgan "Obshchaya ekonomicheskaya teoriya" darsligida tadbirkorlik faoliyatiga quyidagicha ta'rif berilgan: "Tadbirkorlik faoliyati – bu o'zining moddiy manfaatlarini amalga oshirish pirovard maqsadida ijtimoiy ehtiyojlarni qondiruvchi moddiy ne'matlar va xizmatlarni yaratish uchun ishlab chiqarish omillarini (resurslarni) tashkil etish va birlashtirishdir".

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotning metodologik asosini tadbirkorlikni rivojlantirish sohasidagi qonun osti va me'yoriy-huquqiy hujjatlar tashkil etadi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-maydag'i "Faol tadbirkorlik va innovatsion faoliyatni rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni yaratish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3697-soni¹ qarori asosiy huquqiy manba sifatida olingan. Shuningdek, tadqiqot jarayonida tadbirkorlik faoliyatining innovatsion rivojlanish yo'nalishlarini shakllantirish masalasi mantiqiy fikrlash, ilmiy mushohada va tizimli yondashuv metodlari asosida tahlil qilindi. Induksiya va deduksiya, statistik tahlil hamda qiyosiy tahlil usullaridan foydalilanigan holda tadbirkorlik faoliyatining innovatsion rivojlanishiga ta'sir qiluvchi omillar, mavjud shart-sharoitlar va imkoniyatlar asoslab berildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mamlakatimiz tarraqqiyotida, eng avvalo, iqtisodiyotning barqaror va izchil rivojlanishini ustuvor omil sifatida ko'ramiz. Shu bilan birga, ishsizlik darajasining kamayishi ham muhim ijtimoiy natija hisoblanadi. Bunday yutuqlarga, albatta, tadbirkorlarimizning katta hissasi bor. Bugungi kunda barcha sohalarda faoliyat olib borayotgan va ularni rivojlantirayotgan asosiy kuch aynan tadbirkorlardir. Shu sababli ularga turli imtiyozlar va qulay sharoitlar yaratilib, ular iqtisodiyotimiz rivojiga sezilarli hissa qo'shmaqdida.

Biroq tajribaning yetarli emasligi ayrim salbiy ta'sirlarni keltirib chiqarmoqda. Masalan, statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2024-yilning yanvar-dekabr oylarida respublika iste'mol sektoridagi inflyatsiya darjasasi 9,8 % ni tashkil etdi.

Xususan, 2024-yilning yanvar-dekabr oylarida oziq-ovqat mahsulotlari narxлари o'rtacha 2,4 % ga qimmatlashib, inflyatsiyaga 1,1 foiz darajasida ta'sir ko'rsatgan. Shu davrda nooziq-ovqat mahsulotlari narxлари 7,7 % ga oshib, umumiyo ko'rsatkichning 2,5 % ga o'sishiga sabab bo'lgan. Xizmatlar esa 26,7 % ga qimmatlashib, inflyatsiya ko'rsatkichini yana 6,2 % ga oshirishda ishtirok etgan.

Bundan tashqari, turar joy xizmatlari, suv, elektr, gaz va boshqa yonilg'i turlarining narx o'zgarishlari 2024-yilning dekabrida 2023-yilning dekabriga nisbatan yig'ma iste'mol narxлари indeksiga (INI) 4,57 foiz darajasida ta'sir ko'rsatgan. Bu esa kuzatilayotgan tovarlar va xizmatlar umumiyo ta'sirining 45 % dan ortig'ini tashkil qiladi. Oziq-ovqat mahsulotlari va spirtsiz ichimliklar narxларining o'zgarishi esa yig'ma ko'rsatkichga 0,82 foiz darajada ta'sir qilgan.

Ijtimoiy tarmoqlar va boshqa sohalar tahliliga ko'ra, sog'liqni saqlash (20,7 %), ta'lim (14,0 %), restoranlar va mehmonxonalar (12,2 %), transport, spirtli ichimliklar va tamaki mahsulotlari (10,8 %), maishiy xizmatlar (10,0 %) hamda dam olish, sport va madaniyat (8,7 %) yo'nalishlaridagi narx oshishlari yig'ma INI darajasini jami 3,59 % ga oshirishga sabab bo'lgan.

Tadbirkorlik faoliyati, odatda, investitsiyalarni jalg etish bilan boshlanadi. Shu jihatdan asosiy kapitalga yo'naltirilayotgan investitsiyalar hajmi va tarkibining statistik tahlili katta amaliy va tahliliy ahamiyatga ega.

¹ <https://lex.uz/docs/-3723272>



2024-yilning yanvar-dekabr oylarida barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi 493 652,0 milliard so'mni tashkil etgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2023-yilning shu davriga nisbatan 127,6 foizga oshgan.

Mazkur ko'rsatkich tarkibiy jihatdan quydagicha taqsimlangan:

- xo'jalik yurituvchi subyektlar, ya'ni korxonalarning ichki mablag'lari – 17,6 %;
- O'zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi jalb etilgan xorijiy kreditlar – 4,8 %;
- tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz resurslari – 2,6 %;
- to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va kreditlar – 62,8 %,
- shu jumladan, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning o'zi – 30,5 %;
- aholining investitsiya shaklidagi shaxsiy mablag'lari – 6,5 %;
- Respublika budgetidan ajratilgan investitsiyalar – 4,6 %;
- Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi hisobidan moliyalashtirilgan mablag'lar – 0,7 %;
- Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari – 0,4 %.

Bundan tashqari, hisobot davrida umumiyligi qiymati 233 832,9 milliard so'mlik qurilish ishlari amalga oshirilgan. Bu ko'rsatkich o'tgan yilgi mos davrga nisbatan 8,8 foizga oshganini ko'rsatadi. Qurilish ishlaring umumiyligi hajmi tarkibida yirik korxona va tashkilotlar ulushi 23,5 foizni, kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulushi esa 46,2 foizni tashkil etgan. Ushbu ma'lumotlar iqtisodiy rivojlanish sur'atlarining jadallahushi va investitsiyaviy faoliyat darajasining oshganini yaqqol namoyon qiladi.

Iqtisodiyot rivojining yana bir muhim yo'naliishi bu – chakana savdo tovar aylanmasidir. 2024-yilning yanvar-dekabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 403 431,8 mlrd so'mni tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 9,9 % ga oshgan

Xususan, Prezident Sh. M. Mirziyoyev tashabbusi bilan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ko'paytirishga qaratilgan yangi biznes turlari yaratildi, yoshlarni jalb qilish va ularning salohiyatini oshirish masalalari ilgari surildi. 2017–2021-yillarda mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi uchun "Harakatlar strategiyasi" ishlab chiqildi. Uning uchinchi bo'limida kichik biznes ustuvor yo'naliish sifatida belgilangan. 2017-yildan boshlab mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirish maqsadida erkin iqtisodiy zonalar va kichik sanoat korxonalarini tashkil etildi. Bugunga kelib, ularning soni Respublikamizda 70 dan ortiqni tashkil etdi. Ushbu yo'naliishdagi islohotlarning uzvilyigini ta'minlash maqsadida "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi" ishlab chiqildi. Unda savdo va yo'lbo'yli xizmatlarini rivojlantirish bo'yicha 130 ta zamonaliv bozor va savdo majmualari, shuningdek, yo'lbo'yli infratuzilmasini rivojlantirish bo'yicha 65 ta yirik hamda 5000 ta kichik xizmat ko'rsatish obyektlarini tashkil etish vazifasi belgilangan.

Hozirgi vaqtida mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar jarayoni hamda rivojlangan davlatlar tajribasining tahlili shuni ko'rsatadiki, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadallik bilan rivojlantirish ustuvor yo'naliishlardan biri sifatida qaralmoqda. Bunday yondashuvning asosiy sabablarini quydagicha izohlash mumkin.

Birinchidan, kichik biznes ichki bozorni zarur tovarlar va xizmatlar bilan to'ldirishda muhim omil bo'lib, aholining kundalik ehtiyojlarini tez va moslashuvchan tarzda qondirish imkoniyatini yaratadi.

Ikkinchidan, bu sohaning bozordagi talab va kon'yunktura o'zgarishlariga tez moslasha olish qobiliyati uni iqtisodiy o'zgarishlar sharoitida barqaror faoliyat yuritishga imkon beradigan tizimga aylantiradi.

Uchinchidan, kichik tadbirkorlik subyektlarini tashkil etish va yuritish ko'p hollarda katta hajmdagi kapital qo'yilmalarini talab qilmaydi, bu esa keng ommani biznesga jalb qilishda muhim ustunliklardan biri hisoblanadi.

To'rtinchidan, global moliyaviy-iqtisodiy inqiroz sharoitida ham kichik biznes subyektlari nisbatan kam zarar ko'rishi va tezda tiklanish imkoniyatiga ega bo'lishi bilan ajralib turadi. Ularning moslashuvchanlik darajasi yuqori bo'lib, bozor muhitidagi keskin o'zgarishlarga nisbatan chidamliligi kuchli.

Nihoyat, kichik biznes nafaqat iqtisodiy daromad manbai, balki fuqarolarning ijodiy salohiyati, tashabbuskorligi va intellektual resurslarini amalga oshirish uchun ham muhim platforma sifatida qaraladi. Aynan shu omil uni jamiyatda ijtimoiy faoliyatlari rag'batlantiruvchi va bandlikni oshiruvchi vosita sifatida alohida e'tiborga loyiq qiladi.

Bugungi kunda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining nafaqat tovar va xizmatlar ishlab chiqarishda, balki aholi bandligi va farovonligini ta'minlashdagi ijtimoiy ahamiyatidan kelib chiqqan holda, bu sohani qo'llab-quvvatlashning samarali mexanizmlari joriy qilinmoqda.

Xususan, ularni qo'llab-quvvatlashda amaldagi normativ-huquqiy bazani takomillashtirish, bank kreditlarining maqbul fozlarda ajratilishi va soliq sohasidagi imtiyozlarning yanada kengaytirilishi kabi choratadbirlar ularning faoliyat samaradorligini oshirishda muhim amaliy ahamiyat kasb etmoqda.

Hozirgi davrda iqtisodiyotning real sektori korxonalarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash ustuvor yo'naliishlardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Bu borada, eng avvalo, ishlab chiqarish jarayonlarini modernizatsiya qilish, kooperatsion aloqalarni kengaytirish, o'zaro manfaatli hamkorlikni mustahkamlash va



milliy mahsulotlarga ichki talabni oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Amaldagi chora-tadbirlar quyidagi asosiy yo'nalishlarni qamrab oladi:

Birinchidan, xo'jalik subyektlarini soliq yuki bosimidan xalos etish maqsadida soliqqa tortish tizimini soddalashtirish va unifikatsiya qilish bo'yicha tizimli islohotlar olib borilmoqda. Bu jarayonda soliq tartib-taomillarini soddalashtirish orqali ishlab chiqaruvchilar uchun qulay muhit yaratish ko'zda tutilgan.

Ikkinchidan, davlat tomonidan korxonalarga moliyaviy yengilliklar yaratish maqsadida ularning budget va budgetdan tashqari jamg'armalarga bo'lgan muddati o'tgan va joriy kreditorlik qarzdorliklarini qayta ko'rib chiqish mexanizmlari joriy etilmoqda. Bu esa korxonalarning moliyaviy barqarorligini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi.

Uchinchidan, tadbirkorlik subyektlarining tashkil etilishi va faoliyat yuritishi bilan bog'liq xarajatlarni kamaytirish yo'lida kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, litsenziyalash, ro'yxatdan o'tkazish, ruxsatnomalarni olish kabi tartiblar soddalashtirilmoqda, shu orqali tadbirkorlikni boshlashdagi byurokratik to'siqlar kamaytirilmoqda.

Mazkur yondashuvlar iqtisodiyotning real sektorini faolroq harakatlantirishga, ishlab chiqaruvchilarning raqobatbardoshligini oshirishga va ularni ichki hamda tashqi bozorlar uchun samarali ishtiroychi sifatida shakllantirishga xizmat qilmoqda.

Raqobatlashuvchi turlarning uzviy bir butunligi ularning davlat zo'ravonligi bilan yaratiladigan tartibsiz konglomeratidan farq qiladi, chunki bu manfaatlarning uyg'unligiga asoslanadi. Ko'p ukladli iqtisodiyotning shakllanishi mulkchilik shaklining almashinuvi bilangina chegaralanmaydi. Bu jarayon raqobat muhitini yaratish, narxlarni erkinlashtirish, monopoliyalarni tartibga solish va nihoyat, davlat tomonidan tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashni ham anglatadi.

Tadbirkorlikni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning uch muhim yo'nalishini alohida ta'kidlash joiz:

1. tovar va xizmatlar bozorida talab va taklif muvozanatini kuzatish hamda zarur hollarda unga aralashish;
2. korxonaning ichki muhitini tartibga soluvchi fiskal va kredit siyosatni amalga oshirish;
3. mavjud davlat institutsional tizimining o'z-o'zini tartibga solish mexanizmini yaratish.

Bozor sharoitida milliy iqtisodiyotning yuqori sur'atlarda o'sishiga erishish va korxonalarning barqaror holatini yaxshilashda qo'llab-quvvatlashning barcha mexanizmlari ishtiroyki muhim ahamiyat kasb etadi.

Davlat bunday vazifalarni huquqiy, tashkiliy, iqtisodiy va ijtimoiy mexanizmlar orqali amalga oshiradi.

XULOSA VA TAKLIFLLAR

Mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, iqtisodiy subyektlarning eksport salohiyatini kengaytirish maqsadida tabiiy-iqtisodiy salohiyat va resurslardan samarali foydalanish hisobiga tarkibiy o'zgarishlarni davom ettirish, tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyatini huquqiy tartibga solish va faollashtirish tizimini takomillashtirish hisobiga institutsional islohotlarni chuqurlashtirish, moliyaviy barqarorlikni ta'minlash, shuningdek, hududlar aholisi bandligi darajasi va daromadlarini oshirish bo'yicha vazifalarni izchil amalga oshirish talab etiladi.

Tizimlarni joriy etish uchun kompaniyalar raqobatbardoshligini oshirishga, resurslarni tejashga va ekologik barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan yangi yondashuvlarga muhtoj.

Bunda quyidagilarga alohida e'tibor qaratilishi lozim:

- tadbirkorlik subyektlarini tashqi iqtisodiy faoliyat ko'nikmalari bo'yicha o'qitish;
- zamonaviy marketing va menejment texnologiyalaridan samarali foydalanish;
- eksportga ko'maklashuvchi turli tashkiliy tuzilma va infratuzilmani jadal rivojlantirish;
- amaliyotga xalqaro standartlashtirish qoidalarini joriy qilish;
- xalqaro talablarga javob beruvchi sertifikatsiyalash va tahlil xulosalarini beruvchi laboratoriya va markazlar tarmog'ini vujudga keltirish.

Yangi O'zbekiston sharoitida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, iqtisodiy subyektlarning eksport salohiyatini kengaytirish maqsadida tabiiy-iqtisodiy salohiyat va resurslardan samarali foydalanish hisobiga tarkibiy o'zgarishlarni davom ettirish, tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyatini huquqiy tartibga solish va faollashtirish tizimini takomillashtirish hisobiga institutsional islohotlarni chuqurlashtirish, moliyaviy barqarorlikni ta'minlash, shuningdek, hududlar aholisi bandligi darajasi va daromadlarini oshirish bo'yicha vazifalarni izchil amalga oshirish dolzarb vazifalardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022 yildagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 19-martdagji "Koronavirus pandemiysi va global inqiroz holatlarining iqtisodiyot tarmoqlariga salbiy ta'sirini yumshatish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5969-son Farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/-4770761>
3. Haydarov N.H. O'zbekiston iqtisodiyotida kichik biznes va tadbirkorlikning rivojlanish tendensiyalari hamda istiqbollari. – Toshkent: e'Fan va texnologiyalar nashriyoti, 2021. – 228 b.
4. Rakhmonov D.A. O'zbekiston sharoitida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning institutsional asoslari. // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar, 2020, №5. – B. 45–54.
5. Rasulov Z.D. Tadbirkorlik subyektlarining mamlakat iqtisodiyotidagi rolini oshirishning dolzarb muammolari. // Biznes ekspert, 2019, №2. – B. 18–25.
6. Mullajonov B.S. Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish orqali O'zbekiston iqtisodiy barqarorligiga erishish masalalari. // Iqtisodiy taraqqiyot va barqaror rivojlanish, 2022, №1. – B. 63–72.
7. Abdullayeva S.A. Innovatsion tadbirkorlik va mamlakat iqtisodiy rivojlanishining o'zaro bog'liqligi. // Moliya va bank ishi, 2021, №3. – B. 29–36.
8. Tojiyev J.R. Inklyuziv iqtisodiy o'sishni ta'minlashning nazariy va uslubiy jihatlari. // Moliya bozorini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari, zamonaviy tendensiyalari va istiqbollari, 2025. – ISSN 2181-063X.
9. Tojiyev J.R. Tadbirkorlik subyektlari faoliyatini rivojlantirishda mikromoliyalashtirishning rolini oshirish yo'llari. // Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot, 2024. – ISSN 2992-8982. – <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
10. Tojiyev J.R. Tadbirkorlik sub'ektlarini mikromoliyalashtirish bilan bog'liq bo'lgan muammolar. // Collection of materials of the international scientific and practical conference, 2024. – B. 330–335.

MUHANDISLIK & IQTISODIYOT

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100